



TALABALARNI AMALIY PEDAGOGIK VA BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshpo'latova D.B.

*NamDU, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi, (PhD)*

Tayanch so'zlar: innovatsion faoliyat, pedagogik jarayonlar, tarbiyaviy munosabatlar, "rahbar-xodim", "rahbar-xodim-tarbiyalanuvchi" va "tarbiyachi-tarbiyalanuvchi" munosabatlari, boshqaruv faoliyati, integratsiya, intellektual qobiliyatlar.

Ключевые слова: инновационная деятельность, педагогические процессы, образовательные отношения, отношения «лидер-работник», «лидер-работник-стажер» и «педагог-стажер», управленческая деятельность, интеграция, интеллектуальные способности.

Key words: innovative activity, pedagogical processes, educational relations, "leader-employee", "leader-employee-trainee" and "educator-trainee" relations, management activity, integration, intellectual abilities.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kelgusi amaliy faoliyatida MTTda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishlari muhimligi va bu jarayonda talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассматривается значение будущих педагогов в будущей практической деятельности по организации и управлению педагогическими процессами в МТТ, активное участие в процессах подготовки детей дошкольного возраста к школе, а также особенности процесса подготовки учащихся. для практической педагогической и управленческой деятельности в этом процессе выделены.

SUMMARY:

In this article, the importance of the future educators in the future practical activities of organizing and managing pedagogical processes in MTT, active participation in the processes of preparing children of preschool age for school, and the specific features of the process of preparing students for practical pedagogical and management activities in this process are highlighted.

Kirish.Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har



tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish, xususan, bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va ularning sog'lig'ini muhofaza qilish; bolalarning erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi .

Ushbu qonunda asosiy tushunchalar qatorida pedagogning kasbiy standarti tushunchasi maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko'nikmalariga doir asosiy talablar majmuini anglatishi ko'rsatib o'tildi.

Bu o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) uchun oliy ma'lumotli pedagog kadrlar (tarbiyachi-bakalavrlar) tayyorlash jarayoniga ham ijodiy yondashuvni talab qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlili natijalariga asoslanib aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tizimi yo'nalishida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, xususan, M.Nigmatova, M.Daminova, O.Jamoliddinova, G.Komilova, D.Sobirova, M.Salixova, M.Xalilova, K.Raximova, M.Xalimova, U.Shamsiyev, M.Abdullayeva, va boshqalar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy axloqiy, jismoniy va psixologik jihatdan tarbiyalash, ularda muloqot madaniyati va maktabga tayyorlash muammolari tadqiq etilgan.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy shakllantirish va amaliy faoliyatga tayyorlash muammolari N.A.Muslimov, Sh.S.Shodmonova, G.X.Ibragimova, D.I.Ro'ziyeva, B.X.O'razov, D.T.Kenjayeve, Sh.K.Rayimov, O.A.Qo'ysinov, Q.O.Shodmanov va boshqalar; ta'lim muassasalarini boshqarish va boshqaruv faoliyati muammolari R.X.Djurayev, R.Sh.Ahldinov, Sh.E.Qurbonov, S.T.Turg'unov, M.Mirqosimov, U.I.Inoyatov, X.F.Rashidov, J.Fozilov, Ю.В.Васильев, В.П.Топоровский, Т.М.Давыденко, В.И.Зверева, D.K.Fazilov va boshqalar; ta'lim muassasalari rahbar-xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muammolari J.G'.Yo'ldoshev, H.Q.Yo'ldoshev, S.M.To'ychiyeva, M.Quronov, F.Ergashev, N.N.Shanina, I.A.Eliseyeva, M.U.Dexkanova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarini o'rganib chiqqan holda shuni ta'kidlash jozki, ularning ilmiy tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy



shakllantirish va amaliy faoliyatga tayyorlashning nazariy va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar mavjudligini aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan va islohotlar muvaffaqiyati o'rganilgan, ta'lim sifati boshqaruvining uzluksiz ta'limda olib borilayotgan islohotlarning umumiy jarayoni bilan o'zaro aloqadorligini belgilaydigan ma'lumotlar ilmiy asoslangan, shuningdek, ta'lim jarayonining ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirishning zarur va yetarli shartlari ishlab chiqilgan, ta'lim sifatini nazorat qilishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash konsepsiyasini aniqlashtirishga imkon beruvchi ilmiy-nazariy manbalarni tahlil etish, DTS, Malaka talablari, o'quv reja va dasturlari, o'quv-metodik hujjatlar va o'quv adabiyotlarini o'rganish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, test, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Bugun talaba – ertaga tarbiyachi - boshqaruvchi pedagog, shunday ekan bo'lajak tarbiyachilar kelgusi amaliy faoliyatida MTTda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishi;

vujudga keladigan muammoli vaziyatlarda ham oliy ma'lumotli mutaxassislariga xos ravishda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat ko'rsata olishi; pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi; tarbiyalanuvchi va tarbiyachilarda ta'lim olishga zaruriy ehtiyoj va motivlarni shakllantira olishi;

kasbdoshlarida innovatsion faoliyatga qiziqish shakllantirishi; umumiy maqsadni belgilash va turli yo'nalishlarda qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishi;

MTT faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida jamoa fikrini o'rganishi va tahlil qilishi;

MTTda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining mavjudligi hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida ko'p qirrali "rahbar-xodim", "rahbar-xodim-tarbiyalanuvchi" va "tarbiyachi-tarbiyalanuvchi" munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, shuningdek, barcha tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar boshqaruvga asoslanishi va mazkur jarayonda o'zaro bevosita ta'sirlar mavjudligini e'tiborga olgan holda faoliyat ko'rsata olishi uchun ularda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, ya'ni boshqaruv yo'nalishidagi tushuncha, ko'nikma va malakalarning shakllanganligi muhim ahamiyatga ega.



Bu o'z navbatida MTTga oliy ma'lumotli pedagog kadrlar (bakalavr) tayyorlash yo'nalishida o'ziga xos talablarni, ya'ni ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini, yangiliklarini tatbiq etgan holda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish, ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish asosida innovatsion ta'limiy muhitni shakllantirish zaruriyatlarini belgilash bilan bir qatorda, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda bo'lg'usi tarbiyachi-pedagoglarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash, ularni boshqaruv yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish borasida turli yangi vazifalarni yuklaydi.

Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonida ta'lim mazmuniga, bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar darajasiga hamda oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayoni mazmunini boyitish, ta'lim mazmuni va ta'lim berish usullarini yanada takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsion ta'limning eng samarali texnologiyalarini qo'llashni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyotiga tayyorlash jarayonida o'qitish texnologiyasiga yangicha yondashuvlarni joriy etish, fanlar bo'yicha o'qitiladigan mavzularning o'zaro bog'liqligini, ularning integratsiyasini ta'minlashga, fanlarni o'qitilishida tizimli yondashuvga asoslanish talabalarini amaliy faoliyatga psixologik moslashuvini tezlashtirish va o'zi tanlagan soha yo'nalishidagi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni inobatga olgan holda, mavzularning o'zaro bog'liqligini asoslab o'qitish talabalarining fanlar bo'yicha shaxsiy tushunchalarni rivojlantirish, boshqaruv va o'quv faoliyatining ahamiyatini yetarli darajada yoritib berishga imkoniyat yaratadi.

Oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishlari klassifikatorining 100 000 – Ta'lim sohasida 60110200 – Maktabgacha ta'lim va 60110300 – Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi ta'lim yo'nalishlari keltirilgan bo'lib, bu yo'nalishlar o'quv reja va fan dasturlari bo'yicha oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan «bakalavr» akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, uquvlar va ko'nikmalar kompleksini ifodalaydi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar

tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish oliy ta'lim tizimi oldida turgan vazifalardan biri sanaladi.

Buning uchun pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni etkazib berishga erishilmoqda.

Tadqiqot ishining metodologik komponentida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda izchillik, uzviylik va fanlararo integratsion yondashuv tamoyillariga alohida e'tibor berish zarurligi haqida so'z yuritilgan.

Oliy ta'lim tizimida izchillik tamoyilining bosh maqsadi talabani rivojlantirish, o'qitish mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini izchil oqilona, uzluksiz ta'lim sharoitida bu komponentlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan tanlovdan iborat.

O'qitishda izchillikning asosiy vazifasi shaxsga oid ta'lim jarayonlarining olg'a intilishini ta'minlash, o'qitish mazmuni, usullari, shakllari va vositalarining talabalar kasbiy ta'lim muassasasida moslashishiga, uzluksiz kasbiy ta'lim asosiy bosqichlarining o'zaro aloqasini o'rnatishga ko'maklashuvchi eng maqbul yo'nalishini topishdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, ishlab chiqilgan bo'lib, unda xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish zarurligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Konsepsiyada mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni



shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarida asosiy tadbirlardan biri etib belgilandi.

Bu tadbirlar talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash shakllari, metodlari va vositalariga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 avgustdagi PQ-4796-son «O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida «Oliy ta'limning davlat standarti. Asosiy qoidalar» tasdiqlandi. Oliy ta'limning davlat standarti:

kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'limning mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni;

ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablarni; o'quv yuklamasining hajmini;

ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda mexanizmini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Oliy ta'limning Davlat standartiga muvofiq ishlab chiqilgan malaka talablarida oliy ta'lim bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar o'z ifodasini topgan. Jumladan, 60110200 – maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablarida bo'lajak pedagog-tarbiyachilar – bakalavrlarning kasbiy faoliyatlari tavsifi: kasbiy faoliyat sohalari; obyektlari va turlari ko'rsatib o'tilgan.

Bakalavriat bosqichida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kelgusidagi faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda o'qitishda malaka talablarida ko'rsatilgan shart-sharoitlarni yaratish ko'zda tutiladi.

Shuningdek, malaka talablarida bakalavrlarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashni nazarda tutilgan quyidagi umumiy talablar ham mavjud:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lish;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalani bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga tayyorlanadilar.

Kredit-modul tizimida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda o'quv me'yoriy hujjatlarning o'rni katta bo'lib, ularda o'quv faoliyati turlari, va kurslarning tarkibi, ularni o'rganish izchilligi va ta'lim mazmuni o'z ifodasini topgan.

O'quv rejasi "majburiy fanlar" bloki va "tanlov fanlari" blokiga ajratilgan bo'lib, ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirishning eng maqbul usullari, axborot manbalari o'quv dasturlarida ko'rsatiladi.

Kredit-modul tizimida asosida ishlab chiqilgan o'quv rejasi majburiy va tanlov fanlar bloklariga ajratilgan bo'lib, majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, uquv va kompetentsiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratadi.

Tanlov fanlari bloki esa bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetentsiyalari kengayishini ta'minlashi, ta'lim traektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishadi.

Xulosalar. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talablarini amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlash ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Mutaxassislik fanlaridan darslarni tashkil etishga integratsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda pedagogik masala va muammolarni yechish pedagogik faoliyatning mohiyatini ifodalaydi. Pedagogik masalalarni yechishda standart ham, ijodiy ham yechimlarni foydalanish mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 16 декабрдаги “Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги ЎРҚ-595-сонли Қонуни.
2. О‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 19-oktyabrdagi «Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori» O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 11-son buyrug‘i.
3. Юлдашева Ф.Т. Изчиллик асосида олий таълим жараёнини ташкил этишнинг мазмуни ва моҳияти. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармонида 1-Илова.
4. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2021 йил 19 октябрдаги «Олий таълимнинг давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар» Ўзбекистон Республикасининг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида»ги 35-2021-сон буйруғи.
5. Абдуқодиров А.А. «Педагогика» ва «Психология» фанларидан кейслар ва улардан фойдаланиш услубиёти. -Т.: «Fan va texnologiyalar», 2015. - 161 б.
6. Ш.Ш.Олимов, Б.Т. Жураев. Малакавий амалиёт. Методик қўлланма. –Б.: Бухоро давлат университети, 2021. - 41 б.
7. Sh.A.Tursunov, Sh.B.Rashidova. “Menejment va marketing asoslari” O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Т.: 2014 6-б.
8. Ta‘lim menejmentini o‘qitish metodikasi. O‘quv-uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. –Т.: 2021, 57-б.
9. Педагогик амалиёт: тизим моҳияти ва механизми. Э.Юзликаева., Ж.Ғуломов., Х.Рузиметов ва бошқалар. Низомий номидаги ТДПУ, 2012 й., -165 б
10. Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. Т.: «IQTISOD-MOLIYA» нашриёти, 2010, - 169 б
11. Таджиев О.А. Педагогик маҳоратни оширишда бошқарув санъатидан фойдаланиш. / Замонавий таълим. 2015, 12-сон, 28-32-бетлар.